

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ



ҚАРШИ МУҲАНДИСЛИК ИҚТИСОДИЁТ
ИНСТИТУТИ

Муҳандис – техника факультети 5620500 – “Қишлоқ хўжалиги
маҳсулотларини етиштириш, сақлаш ва уларни дастлабки қайта
ишлаш технологияси” таълим йўналиши IV-курс талабаси
АЛИСАИДОВ ФАХРИДДИН ФАРХОДОВИЧнинг

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

Мавзу: “Бухоро-6” ғўза навини етиштириш, сақлаш ва дастлабки
қайта ишлаш технологияси

Илмий раҳбар:


(имзо)

доц. Н.Эшанкулов.

Ишни бажарувчи:


(имзо)

Ф.Алисаидов.

«Химояга рухсат этилди»

кафедра мудири,

 доц. А.А.Абдиев
« 20 » 06 2013 йил.

«Химоя учун ДАК га юборилди»

Факультет декани:

 доц. М.Н.Аликулов
« 20 » 06 2013 йил.

Қарши-2013 йил.

ҚАРШИ МУҲАНДИСЛИК-ИҚТИСОДИЁТ ИНСТИТУТИ

МУҲАНДИС-ТЕХНИКА факультети

5620500 – “Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш,
сақлаш ва уларни дастлабки қайта ишлаш технологияси”
бакалавр таълим йўналиши

«ТАСДИҚЛАЙМАН»
“ҚХМС ва ДИТ” кафедраси мудири
доц. А.А. Абдиев
« 20 » 05 2013 йил.

Битирув малакавий иши бўйича

ТОПШИРИҚ

Талаба Ахмедов Фариҳдин

1. Битирув иши мавзуси “Бухоро 6” ўра қабирини
этиштириш усули ва дастлабки
қайта ишлаш технологияси

Институтнинг №553 буйруғи билан 2012 йил 29 ноябрда тасдиқланган.

2. Талабанинг тугатган битирув ишини топшириш муддати

17 июнь 2013 йил

3. Битирув иши учун маълумотлар

Ушбу арабистларда қабирини элаб-
этиштиришдан соң таъмин қилиш
ва ушбу мақсадда ишлар қилиш
қилиш ҳақида шарт ҳақида қабирини
қилишларини элаб қилишларини қилиш
қилиш таъмин қилиш ҳақида қилиш қилишларини.

4. Хисобий изох қисмининг мазмуни (ишлаб чиқилиши лозим бўлган саволлар рўйхати)

Қабирини “Бухоро 6” ўра қабирини
қилиш қилиш қилишларини қилиш қилиш
қилиш қилиш қилишларини қилиш қилиш
қилиш қилиш қилишларини қилиш қилиш
қилиш қилиш қилишларини қилиш қилиш
қилиш қилиш қилишларини қилиш қилиш
қилиш қилиш қилишларини қилиш қилиш

5. Чизмалар рўйхати (бажарилиши шарт бўлган чизма ва графиклар)

3 та қабирини 7 та қабирини
қабирини.

6. Битирув иши бўйича маслаҳатчилар (уларга тегишли лойиха бўлиминдан кўрсатилсин)

7. Малакавий битирув иши бажарилиши бўйича календар график.

Хафта лар сони	Малакавий битирув ишининг бўлимлари	Хажми, бет	Умумий ҳажмга нисбатан, %	Бажарил ганлиги тўғриси даги белги	Изоҳ
20.05	I. Қирғиз	4	4.5		
	1.1. "Бирорго в" қўра на- варининг этиштирил- сагани ва дастлабки қўра ишлари тасма- лонисини ахлатиш	2	2.8		
30.05	1.2. Оловдунинг қў- рабегини			басма- ринида	
	1.3. Тасдиқотининг маддади бадиқоти- ли ва ушунининг ишлари				
	II. Тасдиқоти ўтма- лидан қўрабегининг ишлари ва тасдиқ маддади	5	5.6	басма- ринида	
3.06	III. Қўрабегининг қў- рабегини маддади	23	25.8		
10.06	IV. Қўрабегини	31	34.9	басма- ринида	
	V. "Бирорго в" қўра на- варининг этиштирил- сагани ва дастлабки қўра ишлари тасма- лонисини ахлатиш				
12.06	VI. "Бирорго в" қўра на- варининг этиштирил- сагани ва дастлабки қўра ишлари тасма- лонисини ахлатиш	3	3.4		
	VII. Қўрабегини ва тасма- лонисини ахлатиш	9	10.2	басма- ринида	
13.06	VIII. Қўрабегининг ахлатиш	2	2.2	ринида	
15.06	IX. Қўрабегининг ахлатиш	5	5.6		
			100%		

Малакавий битирув иши раҳбари

Маслахатчи:

Топширик олинган кун

Талаба

20 май 2013 й
Алисаидовроҳради

MUNDARIJA		
	Kirish	
I	УМУМІЙ ҚИСМ.....	
1.1.	“ Buxoro – 6 “ g’o’za navini etishtirish va dastlabki qayta ishlash xnologiyasini ahamiyati	
1.2.	Mavzuning dolzarbligi	
1.3.	Tadqiqotning maqsadi va vazifalari va uslubiyatlari	
II	Tajriba o’tkazilgan xo’jalikning iqlim va tuproq sharoitining umumiy tarifi.....	
III	Adabiyotlardan to’plangan malumotlar	
3.1.	“Buxoro – 6” navini kelib chiqishi	
3.2.	“Buxoro – 6” navini biologik xususiyatlari	
3.3.	“Buxoro – 6” navini etishtirish va saqlash texnologiyasi.....	
IV	Asosiy qism.....	
4.1.	“Buxoro – 6” g’o’za navining etishtirishda agrotexnik.....	
4.2.	“Buxoro – 6” g’o’za navini saqlash va dastlabki qayta ishlash texnologiyasi.....	
4.3.	“Buxoro – 6” g’o’za navini etishtirish saqlash va dastlabki qayta ishlash texnologiyasini natijalari.....	
4.4.	. “Buxoro – 6” g’o’za navini etishtirish saqlash va dastlabki qayta ishlash texnologiyasini iqtisodiy samaradorligi.....	
4.5.	“Buxoro – 6” g’o’za navini etishtirishning texnologik Xaritasi.....	
V	“Buxoro – 6” g’o’za navini etishtirish saqlash va dastlabki qayta ishlash texnologiyasini atrof muxit muxofazasi	
VI.	“Buxoro – 6”g’o’za navini etishtirish saqlash va dastlabki qayta ishlash texnologiyasini mexnat muxofazasi.....	
VII.	Xulosa va takliflar.....	
VIII.	Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.....	

KIRISH

Ma'lumki so'ngi yillarda mamlakatimizda qishloqda xo'jalik yuritish mexanizmining mutlaqo yangi asoslari, qishloq xo'jaligini moliyaviy ta'minlash va sug'urtalash, ishlab chiqarilgan mahsulot va qishloqqa berilgan qishloq xo'jalik texnikasi, yonilg'i, mineral o'g'itlarlar uchun o'zaro hisob-kitobning yangi tizimi ishlab chiqildi va amalga oshirildi.

Qishloq xo'jalik korxonalarining iqtisodiy mustaqilligi kengaydi. Qishloq xo'jaligi mahsulotini sotib olishda shartnomaviy narx tizimi keng qo'llanila boshladi. Qishloq xo'jaligidagi korxonalarga agroservis xizmati ko'rsatish va ularning moddiy-texnik taminotini ta'minlash tizimi takomillashtirilgan. Yer-suv va boshqa manbalardan unumli va oqilona foydalanishning dehqonchilik madaniyatini ko'tarish, fan-texnika madaniyatini ko'tarish, fan-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalar asosida ekinlar xosildorligini oshirish, ularning sifatini yaxshilash tadbirlari amalga oshirilmoqda.

“Bizni mana shu yer, mana shu tuproq uning unumdorligini oshirishimiz kerak. Buning uchun esa eng avvalo, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilashning irrigatsiya ishlarini ustuvor maqsad deb qarashimiz shart. Qishloq xo'jaligining zamonaviy texnologiyasi, texnika va uskunalar bilan ta'minlash haqida ularning ishlab chiqarish imkoniyati va sifatini dehqonlarni qoniqtiradigan darajada bo'lishi kerak. Agar lozim bo'lsa ularni texnika, o'g'it va boshqa kerakli jihozlar bilan arzonroq, imtiyozli tarzda ta'minlashimiz zarur” deb ta'kidlagan edi. Xurmatli Prezidentimiz I.A.Karimov. Demak qishloq xo'jaligini isloh qilishda avvalo, ana shu yo'nalishlarga e'tibor berishi lozim.

Shu kunlarda mamlakatimizda salkam 96 ming fermer xo'jaliklari paxta xom-ashyosini yetkazishda ishlamoqdalar. Bu qatorida Qashqadaryo viloyati g'o'za ekin maydonlarining asosiy qismini tashkil etgan 20 mingdan ko'p fermer xo'jaliklari mavjud. Ana shu sababli mamlakatimizda fermerlik harakatiga jiddiy e'tibor bilan qaralmoqda. Fermer xo'jaliklari butun respublika va viloyatimiz qishloq xo'jalik sohasini to'liq qamrab olmoqda. Bu albatta taqsinlarga loyiq deb baholanadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidentining "Yerlarning meliorativ xolatini yaxshilash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" va "Xosildorligi past bo'lgan yerlarda davlat extiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risidagi" qarorlari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirishi, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, ularning unumdorligini oshirish va shu asosda qishloq xo'jaligi ekinlari xosildorligini ko'paytirish bilan bir qatorda hosildorligi past bo'lgan yerlarda davlat extiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarga samarali va amaliy yordam berib moliyaviy qo'llab quvvatlash uchun maqsadli mablag'lar ajratish nazarda tutildi.

Shu kunlardagi dolzarb vazifalardagi biri fermer sifatida faoliyat yuritayotgan turli soha vakillarining dehqonchilik, paxtachilik va o'simlikshunoslik bo'yicha bilim darajasini oshirish, ularga g'o'za navlari, ularga mos keladigan agrotexnologiya, tuproqqa ishlov berish meniral va mahalliy o'g'itlar, g'o'za kaslliklari hashorotlari va ularga qarshi kurashish, tuproq meliorasiya va tuproq unumdorligini o'rganish va tavsiyalar berish uchun malakaviy bitiruv ishini yozdik.

1.1. "Buxoro 6" g'o'za navini yetishtirish saqlash va dastlab ishlash texnologiyasini ahamiyati.

G'o'za boshqa qishloq xo'jalik ekinlaridan farq qilib, bir yo'la uch turdagi qimmatli mahsulot ya'ni, to'qimachilik uchun xomashyo tola, oziq-ovqat uchun moy, chorva ozuqasi kunjara va sheluxa beradi. G'o'za asosan tola olish uchun ekiladi. Bir tonna xomashyodan o'rtacha 340-350 kg tola, bundan 4200 metr batist yoki 50000 ip o'rami bundan tashqari: momiq 60-65 kg, Chigit 570-580 kg chigitdan esa 100-112 kg yog', sovun 20 kg kunjara 200-215 kg, sheluxa 180-190 kg 1ga maydondagi 2-4 tonna bo'ladi. Dunyo miqyosida to'qimachilik tolasi ishlab chiqarish paxta ulishiga 50-60% dan ko'prog'i to'g'ri keladi.

Toladan asosan ip yigiriladi, to'qimachlik buyumlari kiyim va gigroskopik paxta tayyorlanadi. Undan aviatsiya, avtomobil, elekt va boshqa sanoatlarda keng foydalaniladi. Toladan porashotlar, baquvvat iplar, kirza shlonglar, qayish, kinorasm

plyonkalari, yozuv qog'ozlari kabi ko'plab mahsulotlar tayyorlanadi. Chigitdan presslash yoki ekstraksiya qilish yo'li bilan paxta moyi olinadi. Moyi esa oziq-ovqat va texnik maqsadda ishlatiladi. Undan sovun pishirishda, alif, lak, emal va boshqa xil buyumlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Chigit tarkibida gossipal pigmenti (zaharli organik birikmalar) bo'lib, moy olish jarayonida ajratib olinadi va undan ham har-xil sintetik mahsulotlar ishlab chiqiladi.

Moy ishlab chiqarishdagi qoldiq gidron ham foydalanish uchun xalq xo'jalik tarmoqlariga yuboriladi. Momiq paxta kiyim-kechak, ko'rpa- yostiقدan tashqari suniiy ipak, plastmassa, lak, qog'oz, portlovchi moddalar tayyorlashda sarflanadi. Chigit po'sti (sheluxa) dan va shrotidan chorva uchun ozuqa bo'lishdan tashqari sanoatida potosh, oshlovchi moddalar, spirt, qog'oz-karton va ko'plab boshqa mahsulotlar olinadi. Bargidan 20 xil organik kislotalar, jumladan olma va limon kislota olinadi. Poyasi va chanoqlaridan yoqilg'idan tashqari qurilish materiali sifatida keng foydalaniladi.

Umuman g'o'za qimmatbaho o'simlik bo'lib uning tolasi chigiti va boshqa qismlaridan 200-250 xilga yaqin keng iste'mol mollari va texnikabop mahsulotlar olinadi.

1.2. Mavzuning dolzarbligi.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlar samaradorligi ko'p jihatdan bozor munosabatlariga mos keluvchi bozor sinfi tuzilmasini shakllantirishi bilan bog'liq. Bozor infratuzilmasi bozor xo'jaligini muhim tarkibiy qismi sifatida xo'jalik yurituvchi sub'yektlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni uzluksizligi va barcha turdagi bozorlar tovarlar kapital va mehnat bozorlarining samarali faoliyati ko'rsatishni ta'minlashda muhim omil bo'lib qolmoqda.

Shu munosabat bilan iqtisodiyotni erkinlashtirishni bosqichida bozor infratuzilmasini keng qamrovli faoliyatini tashkil etish va takomillashtirishni muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek "Olamshumil jarayoni chuqurlashtirishi, rivojlangan bozor infratuzilmasini barpo etish raqobat muhitini shakllantirishga alohida" e'tiborni qaratish zarur

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" asarida Bugungi kunning eng dolzarb muammosi. Bu 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy inqiroza, uning ta'siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohatlarini izchil o'tkazishda aholini turmush farovonligini tubdan yaxshilash iqtisodiy inqirozdan chiqishda yetishtirilgan paxtani saqlash va dastlabki ishlov berish, qayta ishlash Viloyatimiz fermerlari, qayta ishlash korxonalari oldiga turgan eng muhim dolzarb vazifalardan biridir.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun, g'o'za navlari ularga to'g'ri keladigan agrotexnologiya, tuproqqa ishlov berish meniral va mahalliy o'g'itlar g'o'za kasalliklari, hashoratlari va ularga qarshi kurashish, tuproq meliorasiyasi va tuproq unumdorligi kabi tadbirlarni o'z vaqtida bajarish lozim.

1.3. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari va uslubiyatlari.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi Qashqadaryo viloyatining mintaqaviy xususiyatlarini xisobga bo'lgan holda Mirishkor tumanidagi "Buxoro 6" g'o'za navini yetishtirish saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasini o'rganish va kerakli tavsiyalar berish.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish kerak bo'ladi. Mirishkor tumani Jeynov qishlog'i "Xamroyev Zafar " fermer xo'jaligida ekiladigan ekinlar ro'yhatini olish. Shu fermer fermer xo'jaligida ekiladigan "Buxoro 6" g'o'za ekini ustida quyidagi agrotexnik tadbirlarni o'tkazish.

Yer tayyorlash (yerni shudgor qilish, shudgordan oldin fosforli, kaliyli va organik o'g'itlar solish). Yerni taqsimlash, borona qilib jo'yak olish zahira suv berish, Chigit ekish (Chigitni kulga aralashtirib) Chigit ekish bilan birga gerbitsid sepish, yagonalash, kultivasiya qilish, o'g'itlash sug'orish g'o'za zararkunandalari va

kasalliklarga qarshi kurash, Chilpishi, defoliatsiya qilish, paxta hosdilini yig'ib terib olishga tayyorlash va hosilni terib olish, saqlash va dastlabki qayta ishlash.

Tajribani uslubiyatlari. Tajriba O'zbekiston Paxtachilik ilmiy - tadqiqot instituti, O'zbekiston Qishloq xo'jaligi ilmiy ishlab chiqarish markazi uslubiyatlari, ilg'or fermerlar va dehqonlarning tajribalari o'rganilib adabiyotlardan olingan ma'lumotlar tahlil qilinib izlanishlar olib borildi.

I.TAJRIBA O'TKAZILGAN XO'JALIKNING IQLIM VA TUPROQ SHAROITINING UMUMIY TA'RIFI.

Xo'jalikning tuproq sharoiti xo'jalining tuprog'i asosan och va tipik bo'z tuproqlardan tashkil topgan bo'lib. Biz dala tajribasini tipik bo'z tuproqli maydonda o'tkazdik. Umimiy tarzda I.Boboxo'jayev, T.Uzoqovlarning ma'lumotlariga ko'ra (1995) bo'z yuproqlarning morfologik tuzilishini quyidagiga; A-Gumusli gorizont qalinligi 12-17 sm, ustki qizg'ish tusli, ko'pincha changsimon qumoq tangasimon mayday uvofli, strukturali.

AV- unuvchi gorizont, 15-20 sm sarg'ish malla bo'z asosan changli qumoq tez uvalanib ketadigan chidamsiz uvoqli strukturali.

V_k- karbonatli illyuvinal gorizont qalinligi 60-100 sm och-qo'ngir sarg'ish (malla) ko'pincha changsimon qumoqli zichlangan.

C_k- sarg'ish yoki malla tusli changsimon qumoq yuqori qismida tuzlar turadi. 1,5-2,0 mga mayda gipslangan taram-taram tuzilishli kiristallari uchraydi. Dala tajribasi o'tkazilgan maydon tuprog'i sho'rlanmagan, mexanik tarkibi o'rta qumoqli yer osti sizot suvlar 8-10 m chuqurlikda joylashgan jadvaldagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bu tuproqda chirindi miqdori kam bo'lib 60sm qatlamda 0,94%ni tashkil etadi.

Jadval 1

Tuproq qatlami sm	Chirindi gumus %	Azot mg/kg	Fosfor mg/kg	Kaliy mg/kg
0-20	1,09	13,9	21,7	217,4
20-40	0,98	9,8	19,9	201,7
40-60	0,74	6,1	15,1	192,1
0-60	0,94	9,93	18,90	203,73

Yerning yuza qatlamida (0,20) azot, fosfor va kaliyning miqdori past qatlamlarga qaraganda yuqori bo'lib, muvofiq ravishda har kg tuproqda 13.9, 21.7, va 217.4 mgni tashkil qiladi. Takriba maydonidagi tuproq organik moddalarga azot

va fosforgia ancha kambag'al bo'lib, faqat almashinuvchi kaliy o'rta miqdordadir. Tipik bo'z tuproqlarning gorizontlarida zichlik unga yuqori emas. (zichligi 1,12-1,22⁰ grsm³) qatlamda 7% bo'lib, undan ostki qatlamlarda bu ko'rsatgich 54-56% gacha ko'tariladi.

Jadval 2

Tipik bo'z tuproqlarning fizikaviy xossalari (Boboxo'jayev, Uzoqov 1995-yil).

Tuproq gorizonti va chuqurligi sm	Zichligi g/sm³	Umumiy g'ovakligi %
A-0-2	1,17	7
A-5-15	1,22	55
V-20-30	1,20	56
V-50-10	1,21	56
V-120-130	1,25	54

Bu tuproqlar fizik xossalarining qulay bo'lishi asosan undagi mikroagregatlarning ko'pchiligi va tuproqdagi mikroorganizmlarning aktiv faoliyati bilan bog'liq. Bo'z tuproqlar sug'orilganda uning fizikaviy xossasi yomonlashadi, tuproq profilli zichlashib, suv o'tkazuvchanligi pasayadi. Shuning uchun ham bu tuproqda sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida tuproq qatlamidagi unumdorligini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalgam oshirishda yaxshi natija beradi.

Xo'jalikning iqlim sharoiti. Xo'jalikning iqlim sharoiti o'zgaruvchan kontinental iqlim bo'lib, yozgi iqlim nisbatan sovuq bo'ladi. Issiqlikning yillik normasi 4900-5000⁰ ni effektiv harorat so'mmasi 2334-2600⁰ ni teng.

Vegetatsiya davri davri +5⁰ yuqori bo'lgan kunlar 270, +10⁰ dan ortiq bo'lgan kunlar esa 230 kunni tashkil etadi. Yillik o'rtacha harorat 16-17⁰ bo'lib, qish davrida (yanvar) bu ko'rsatgich 2,9-6,2⁰ ba'zi kunlari esa -4,5⁰ sovuqqa teng bo'ladi. Eng sovuq kunlari yanvar, fevral oylari bo'lib ⁰ haroratning absolyut minumimi 1997-1998-yillarda -8,3,9,6 darajaga tenglashadi.

Eng issiq oy 1997-1998-yillarda o'rtacha oylik harorat +29,19+31,0⁰ bo'lib absolyut maksimum esa 42,1⁰+45,7⁰ bo'gan. Tuproqning haydalma qatlamida (⁰-

30sm)⁰ harorat ham yildavrida o'zgarib turadi. Yanvar oyida o'rtacha bu ko'rsatgich 6,4-6,8⁰ bo'ladigan bo'lsa iyul oyida uning o'rtacha miqdori 29,8-30,4⁰ yetadi.

Sovuq bo'lmagan issiq kunlar yiliga 221 dan 239 kunga davom etadi. Havoni nisbiy namligining o'rtacha yillik ko'rsatgichi 60% atrofida bo'lib, qish va erta bahorda 79-89% ni , yoz oylarida 36-46%ni tashkil etadi. Ayrim kunlari yozda havoning nisbiy namligi 10-15% ga yetadi. Kunning yarmida (soat 13-14 da) 6-8% turib qoladi. Yog'ingarchilik asosan kech kuz, qish hamda bahor oylarida o'rtacha ko'p yillik yog'ingarchilik miqdori 250-260 mlni tashlik etadi.

III.ADABIYOTLARDAN TO'PLANGAN MA'LUMOTLAR.

3.1. G'o'zaning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.

G'o'zaning xalq xo'jalikdagi ahamiyati benihoyadir. Chunki g'o'za yoki uning mahsulotlaridan tayyorlangan buyumlar u yoki bu miqdorda ishlatilmaydigan xo'jalik tarmog'i bo'lmasa kerak.

G'o'za boshqa qishloq xo'jalik ekinlaridan farq qilib, bir yo'la uch turdagi qimmatli mahsulot, ya'ni to'qimachilik mahsuloti uchun xomashyo-tola, oziq-ovqat uchun moy , chorva ozuqasi uchun kunjara va sheluxa beradi. G'o'za asosan tola olish uchun ekiladi. 1 tonna xomashyosidan o'rtacha 340-350 kg tola, bundan 4200 metr gazlama yoki 7000 metr batist yoki 50000 ip o'rami, bundan tashqari: momiq 60-65 kg Chigit 570-580 kg chigitdan esa 100-120 kg yog', sovun, 20 kg kunjara, 200-215 kg sheluxa 1ga maydondagi g'o'za poyasining o'g'irligi 2-4 tonnagacha bo'ladi. (R.Oripov, N.Xalilov 2006-yil) Paxta tolasidan yuqori sifatli tekstil va texnik mahsulotlari (buyumlari) ishlab chiqarilgani uchun ham suniiy tolalardan farq qiladi va universal xomashyo beruvchi tabiiy tolalar guruhiga mansubdir.

Paxta tolasining zavodlarida Chigitli paxtadan 34-35% tola, 60-62% chigit, 2-2,5% momiq va 1,0-1,5% chiqitlar ajratib olinadi. Dunyo miqyosida to'qimachilik tolasi ishlab chiqarishda paxta ulushiga 50-60% dan ko'prog'i to'g'ri keladi. Tolasidan asosan, ip yigiriladi, to'qimachilik anjomlari kiyim va gigroskopik mahsulot tayyorlanadi. Undan aviatsiya, avtomobil, elektr va boshqa sanoatlarda keng foydalaniladi. Toladan poroshotlar, baquvvat iplar, kirza shlonglar, qoyish, kinorasm plyonkalari, yozuv qog'ozlari kabi ko'plab mahsulotlar tayyorlanadi. (R.Oripov, N.Xalilov 2006-yil) Chigitdan presslash va ekstraksiya qilish yo'li bilan paxta moyi olinadi. Moyi esa oziq-ovqat va texnik maqsadlarda ishlatiladi. Undan sovun pishirishda, alif lak, emal va boshqa xil buyumlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Chigit tarkibida gossipal pigmenti (zaharli organik birikmalar) bo'lib, moy olish jarayonida ajratib olinadi va undan ham har xil sentetik moddalar ishlab chiqariladi. Moy ishlab chiqarishdagi qoldiq gidron ham foydalanish uchun xalq xo'jalik tarmoqlariga yuboriladi. Momiq paxta kiyim-kechak, ko'rpa yostiqlardan

tashqari, suniiy ipak, plastmassa, lak, qog'oz, portlovchi moddalar tayyorlashda sarflanadi. Chigit po'sti (sheluxa) dan va shrotidan chorva uchun ozuqa bo'lishidan tashqari, sanoatda potali, oshlovchi moddalar spirt, qog'oz, karton va ko'plab boshqa mahsulotlar olinadi. Hatto g'o'za shrotidan fatin va oziq-ovqat oqsili ajratiladi.

G'o'za tupidan 100 dan ko'proq birikmalar olishi mumkin. Bargidan 20 xil organik kislotalar jumladan olma va limon kislotalari olinadi. Poya, chanoqlaridan yoqilg'idan tashqari qurilish materiali sifatidan keng foydalanish ahamiyatlidir. Undan presslangan fonerlar, yog'ochlar, mebel yasash uchun kerakli materiallar tayyorlanadi. Chorva uchun yem xashak hisoblanadi. G'o'za o'simligi o'zida ko'p miqdorda shira saqlaydi. Shuning uchun paxtachilik bilan shug'ullanuvchi xo'jaliklarda asalarichilik rivojlantirish imkoniyati ham kattadir.

Umuman g'o'za qimmatbaho o'simlik bo'lib uning tolasi, Chigit va boshqa qismlaridan 200-250 xilgacha keng iste'mol mollari va texnikabop mahsulotlar olinadi.

Jahon paxtachilik tarixi. G'o'za o'simligi yer sharining tropic mintaqasidan ya'ni havo harorati 18°C dank am bo'lmagan Musson iqlimi sharoitidan kelib chiqqan bo'lib, uning yer yuzasidagi barcha tur xillari "Gossipum " ya'ni "G'o'za" avlodiga mansubdir. G'o'za vatanida ko'p yillik daraxtsimon va butasimon o'simlik bo'lib, ularning hosili kam va tola sifati past bo'ladi. Dehqonchilikda esa ularning bir yillik madaniy tur va navlari ekiladi va foydalaniladi. Ko'p yillik g'o'zalarni bo'yi 6 metrgacha bo'ladi. Bir yillik g'o'zalarni balandligi 30-40 sm dan 2 metrgacha bo'ladi.

Ma'lumotlarga qaraganda g'o'za avlodi 70-100 mln yil avval bo'r davrida vujudga kelgan deb tahmin qilinadi. Yer yuzida g'o'zaning bir-biridan farq qiluvchi geografik guruhlari mavjud. Bular Avstraliya (Sturtiya), Afrika-Osiyo (Polotropik-Eugassipium) va Amerika (Neotropik-karpae) guruhlari. Har bir guruhdagi g'o'zalar ham belgi va xususiyatlariga qarab kichik guruhlarga bo'linadi. Insoniyat o'z maqsadlari uchun tanlash va duragaylash yo'llari bilan yangidan-yanggi g'o'za shakllarini vujudga keltirdiki oqibatda 7-9 oyda ko'sak ochiladigan daraxtsimon

shakldan 4-6 oyda pishib yetiladigan bir yillik g'o'zalarni yaratdilar. (R.Oripov, N.Xalilov 2006-yil).

F.Mauer klassifikasiya bo'yicha yer yuzida g'o'zaning 35 turi mavjud bo'lib, ulardan 5 turi madaniy hisoblanadi. Madaniy g'o'zalardan G.hirzitum (F.nirqutum) G.Barbadenze (G.Barbadenzi) va G.Tirikuspidamum (G.Tricuqpiolatum) yangi dunyo g'o'zalaridir. G. Tirzutumning asl vatani Meksika bo'lgani uchun uni Meksika g'o'zasi deyiladi. G.Barbadenze Peru g'o'zasi, G.Trikuspidatum esa Vest indiya uch tishgash g'o'zasi nomi bilan ataladi.

Eski dunyo g'o'zalaridan G.Orboreum (Garvorem) Xinu-Xitoy g'o'zasi, G.Herbaceum esa (G.Hervaceum) Afrika Osiyo g'o'zasi nomi bilan yuritiladi. Ekish maydoni jihatidan birinchi o'rinni hirzitum egallasa, keyingi o'rinlarda G.Arboreum, G.Barbadenze, G.Herzeum turadi. G.Trikuspidatum esa juda oz maydonda, dengiz sohili iqlim sharoitida o'stiriladi. Insoniyat paxta tolasidan 15-30 ming yil avval undan ham ilgari foydalanilgan bo'lishi mumkin. Arxeolog qazilmalar asosida aniqlanishiga Xindistonda 3000 yil oldin paxta tolasidan keng foydalanilgan.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda Eron va Arabistonda g'o'za o'stirish Eramizdan oldingi 5-asrda, Misrda esa 7-asrda mavjud bo'lganligini takidlaydi.

O'rta Osiyo teritoriyasida bundan 2200-2400 yil muqaddam g'o'za o'stirilgani va eramizning boshida toladan keng foydalanilgani to'g'risida yetarlicha ma'lumotlar mavjud.

Yevropada paxtachilik nisbatan ko'proq rivojlandi. Ermizning 1-2-asrida Gresiya, Bolqon yarim orolida esa 7-asrda ekilganligi ma'lum. Amerika qit'asida paxtachilik eski dunyoga aloqosi bo'lmagan holda mustaqil rivojlangan va qadim zamonlarga borib tarqaladi. Avstraliyada paxtachilik bilan keng shug'ullangan va bu davr 13-asrning oxirlariga to'g'ri keladi. Yer yuzida 90 dan ko'proq 32-33 mln gektardan ko'proq maydonga paxta ekiladi va har yili 19-20 mln tonna tola yetishtiriladi.

Jahonda eng ko'p paxta yetishtiruvchi mamlakatlar Xitoy, AQSh, Xindiston, Pokiston, O'zbekiston, Braziliya, Turkiya, Misr, Meksika bo'lib, ular paxtani 80%

yetishtiradi. Markaziy Osiyoning iqlimi ancha quruq atmosfera yog'inlarining miqdori kam va yoz oylarida yuqori, faqat suniiy sug'orish bilangina hosil olinadi.

Bu regionda g'o'zaning asosan ikki turiga kiruvchi navlari ekiladi; G.Tirzutum va G.Barbadenze turiga kiruvchi uzun (ingichka) tolali navli g'o'zalar. O'rta tolali navlar nisbatan tez pishar bo'lgani uchun 90% maydonga ekiladi. 10% maydonga ingichka tolali navlar ekiladi.

O'zbekiston Respublikasi jahondagi eng yirik paxta yetishtiruvchi mamlakatlar jumlasiga kiradi. U paxta yetishtirish bo'yicha dunyoda 5-7-o'rinlarni egallab, ko'p miqdorda paxta tolasini xorijiy mamlakatlarga eksport qilmoqda.

O'zbekiston paxtachiligi uzoq o'tmishga ega bo'lsada sohaning jadal rivojlanishi 20-asrga to'g'ri keladi. Ma'lumotlarga asosan 1860-yilda O'zbekiston hududida 36 ming gektar maydonga Chigit ekilib, gektaridan 7 sentnerdan hosil olingan, ya'ni hosil 25 ming tonnani tashkil etgan. 1913-yilda 517,2 ming tonnani 12,2 sentnerga ko'tariladi. Paxtachilikning xalq xo'jaligida ahamiyati katta bo'lganligi uchun sohaga katta etibor berilib yer maydoni kengaytirilib sug'oriladigan yer maydonining 70-75%ni paxta maydoni egallaydi. Buni sababi, kanallar chiqarish suv omborlari quriladi, o'g'it va boshqa ximyaviy vositalar bilan ta'millash, mexanizatsiyalash ya'ni navlarni olimlarimiz tomonidan yaratishi natijasida yalpi hosil 5,5-6 million tonnaga hosildorlik 2 esa 26-30 senrnerga ko'tariladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etishi barcha sohalarni rivojlantirishni amalga oshirmoqda. Endilikda sug'oriladigan maydonlarning 50-60% dan oshmagan (xolda) tola paxta ekish rejalashtirilmoqda. Paxtachilik intinsev rivojlantirish mamlakat bo'yicha hosildorlikni 30-35 sentnerga yalpi hosilni 4-4,5 mln tonnaga ko'tarishi sohasining barqarorligini ta'millaydi.

3.2. Biologik xususiyatlari.

G'o'za rivojlanish jarayonida Chigitni ekishdan to o'suv davrining oxirigacha (ontogenezida) beshta asosiy davrni o'taydi.

1. Unub chiqish-urug'baglik davri.
2. Chinbarg chiqarish davri.
3. Shonalash davri.
4. Gullash va liva tugishi davri.
5. Pishish davri.

Tuproqdagi harorat va namlik sharoiti qulay bo'lgandan, ekilgan Chigit 5-7 kunda unub chiqadi (noqulay bo'lganda 10-15 kun o'tadi.) Unub chiqqandan birinchi chinbarg chiqqunga 8-12 kun, gullashdan shonalashgacha 50-60 kun o'tadi. Umuman g'o'za ekilgan to pishguncha o'rta tolali g'o'zalarda 140-160 kun o'tadi. G'o'za asosan o'zidan changlanadi.

G'o'za issiq tropik zonadan kelib chiqqanligi uchun ham issiqqa talabchan bo'ladi. Chigit unub chiqib normal o'sish va rivojlanish uchun mo'tadil (optimal) harorat 25-35°C harorat 17°C tushganda rivojlanish susayib qoladi. Harorat 36-37°C dan olinganda g'o'zaga ortiqchalik qiladi. 40°C esa rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. G'o'zaning tur va naviga tez yoki kechpisharligiga qarab foydali harorat yakuni 1600-2000°C gacha yetadi. G'o'za yorug'sevar o'simlik. Uning barg shapaloqlari kun bo'yi quyosh nuri tushishiga qarab, o'z holatini o'zgartirib turadi. Yorug'lik yetishmay qolsa shona va kurtakchalar ko'p to'kilib ketadi, fotosintez jarayoni sekinlashadi. Hosildorlikka putur yetadi. Masalan: quyoshli kunda (N⁻169-nav) 1m² barg sathida bir soatda 1,46 g moddani assimilyatsiya qilgan bo'lsa, bu raqam bulutli kunda 0,06 grammga tushib qolgan (A.Blagovishchenskiy). G'o'za tipik qisqa kun o'simligi bo'lgani uchun yog'in kunning uzunligiga juda ta'sirchan bo'ladi.

Yorug'likni boshqarish uchun ekin ekish yo'nalishi, ekish sxemasini tanlash, begona o'tlarga qarshi kurash ahamiyatlidir.

Suvga talabi. G'o'za qurg'oqchilikka chidamli lekin suvga talabchan o'simlik. Uning transpirasiya koefisienti (1g quruq modda hosil qilish uchun sarq qiladigan suv miqdoriga) 600-700 ga teng. Bu raqam o'sish sharoitiga qarab 400-800, 1000 va undan ham ortiq bo'lishi mumkin. O'simlikning o'sish sharoiti qancha yaxshi bo'lsa, traspirasiya koeffisienti shuncha yaxshi bo'ladi, o'simlik suvdan tejab foydalaniladi.

G'ozaning sarf qiladigan absolyut suv miqdori transpirasiyadan farq qilib har bir gektar maydonga transpirasiya uchun sutkasi chinbarglik davrida 80-90, 100-120m³ pishib yetilishi davrida esa 30-40m³ suv saflaydi. (R.Oripov, N.Xalilov 2006- yil)
G'ozaning butun o'suv davrida esa tahminan 6000-8000m³ suv sarflaydi.

Oziq moddalarga talabi. G'oz'a o'simligi butun yer ustki qismlari bilan birga 1tonna Chigitli paxta yaratish uchun eng muhim bo'lgan oziq moddalardan o'rtacha: 50-60 kg azot, 10-15 kg fosfor, 50-60 kg kaliy talab qiladi. Boshqa elementlardan o'rtacha hisobda 50 kg kalsiy, 10 kg oltingugurt, magniy va natriy 2 kg gacha temir, 200g bor, 50g mis, 1,5g xlorini o'zlashtiradi. G'oz'a o'zining o'suv davrida sarflaydigan azot va fosfor moddasina rivojlantirish davrlari bo'yicha quyidagicha o'zlashtiradi: Shonalashgacha azot (2) 7% fosfor 5% shonalashdan gullashgacha azot 46% fosfor 35% gullashdan pishishgacha azot 44% fosfor 50% pishish davrida esa azot 3% fosfor 10% mikroelementlarni (bor, marganes, mis va boshqalar) qo'llash g'oz'a gullarining otalanish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'simlikning kasallikka chidamliligi oshadi.

Tuproqqa talabi. G'oz'a turli xil tuproqlarda ham o'sa oladi. Lekin hamma tuproqlar g'oz'a uchun yaroqli bo'lavermaydi. Tuproq har xil bo'lgan yerlardagi g'oz'alardan mo'l hosil olish uchun turli miqdorda mehnat va materiallar sarflashga to'g'ri keladi. Madaniy qatlami qalin, eskidan sug'orib qilinayotgan yerlardan yuqori hosil olish mumkin. Sho'rlangan yerlar g'oz'a uchun yaroqli emas.

G'oz'a navlari. G'oz'aning ekiladigan barcha navlari ikki guruhga:

1. Uzun (ingichka) tolali.
2. O'rta tolali navlarga bo'linadi. Uzun (ingichka) tolali navlar 1-2-3 tip tolalar barcha 4-5-6 tip tolalar esa o'rta tolali g'oz'a navlaridan olinadi. 4-5-6 tip tolali o'rta tolali g'oz'a navlari.

Viloyat va tumanlarda Davlat nav sinovidan o'tgan, tuproq iqlim sharoitiga mos bo'lgan bir necha navlar ekilmoqda. Namangan 77, C-6524, C-6530, Oqdaryo-5, Oqdaryo-6, Yulduz, C-4727, Buxoro-102, Sharof-75, Omad, Navbahor, An-chillaki-1.1-2-3 tip uzun (ingichka) tolali navlari.

Ashhabod-25, Termiz-16, Termiz-24, Termiz-31, Qarshi-8, C-6037 navlari.

3.3. Paxtani terish, tayyorlash saqlash va dastlabki ishlov berish.

G'o'za tupidagi ko'saklar boravariga pishmaganligi sababli uning hosili bir necha marta terib olinadi. G'o'zani terib olishdan oldin g'o'za dalasi defolatsiya va desikatsiya qilinadi. G'o'za bargini terim oldidan dorilab to'ktirish, g'o'zani pishishiga yordam beradi. Mashinada terishga qulay bo'ladi.

Gost 10202-71 bo'yicha paxta bir mavsumda to'rt marta qo'lda teriladi. Qo'lda birinchi marta paxta terishga tushganda 4-5 ta ko'sak to'la ochilgan bo'lishi kerak ikkinchi terimda ochilgan hamma paxta terib olinadi. Uchunchi va to'rtinchi qo'l terimda o'simlik to'plarida qolgan paxta hosilini hammasi terib olinadi. Terimni kechiktirish har-xil sortlarga oid paxtaning aralashib ketishiga, shuningdek paxtaning umumiy sorti va undan olinadigan tola sifatining pasayib ketishiga olib keladi.

Chigitli paxtani tayyorlash. Paxta hosili davlat paxta tozalash zavodining tayyorlash punktlarida davlat standarti talablariga muvofiq qabul qilinadi. Paxta tayyorlash punktlarida klassifikator paxtaning sifatini aniqlab qabul qilingan paxta partiyasi omborlariga joylashtiriladi. Paxta qabul qilish punktlari paxtani qabul qilib uni tozalash, quritish va yaxshi saqlashga masul bo'ladi.

Chigitni ekishdan oldin ekishga tayyorlandi. Unuvchanligi 90-95 % dan kam bshlmagan urug'lik Chigit tanlanib, Chigit mahsus tayyorlangan, betonlangan maydonchalarda 1 tonna Chigitni namlash uchun 600 litr suv sarflanadi. Chigit namlanadigan maydonchalarni bo'yi 5 metr eni 2,5 metr va balandligi 30-35 sm namlash vaqtida suv oqib ketishining oldi olinadi. Chigitni namlash vaqtida qalingina 20-25 sm qilib yoziladi. Namlash 3-bosqichda birinchisi 4 soat ikkinchisi 4 soat uchunchisi 6 soat davomida 200 litrdan suv sarflanadi. Chigitni to'liq namlashga erishildi.

Chigitni ekishdan oldin pushtani ustki 2 marta barona qilindi. Biz o'z tajribamizda Chigitni ekishdan oldin qo'l bilan ishlov berdik. Chigitni pushtaga tushishiga yordam beradi. Seyalkani teshigiga tiqilib qolmaydi. Ekish chuqurligi 5 sm, me'yori 50 kg qilib, ekildi. Chigit ekish bilan birga "stomp" gerbitsididan gektariga 1,0 kg me'yorlarda ishlatiladi.

G'o'zani yagonalash. G'o'za 1-2 chinbarg paydo bo'lganda o'tkazildi. Yagonalash 8- kunda yakunlandi. YAgonadan keyin 8 chi kuni ya'ni bir marta tekshirilib keyin ko'karib chiqqan, nimton, kasallangan nihollar olib tashlanib, to'liq va tekis gektar hosil qilindi.

Paxtani yagona qilishda o'lchov tayyoqchalaridan foydalanildi.

"Buxoro -6" navi g'o'zasi kuchli shoxlanib o'sganligi uchun bir gektar maydonda 90-95 ming tup ko'chat qoldirildi. YA'ni bir metrda 8-9 tup ko'chat to'g'ri keladi. G'o'za qator orasiga ishlov berish katta ahamiyatga ega. CHunki bunda tuproqning suv – fizik mikrobiologik xususiyatlari , havo almashinuvi va ozuqa tartibi yaxshilanadi, begona o'tlarni bir qismi yo'qoladi. G'o'za qator oralariga ishlov berishda tuproq xususiyatlar, joyning reliefi, suv bilan ta'minlanganligi inobatga olib uning chuqurligi soni va muddatini belgilash maqsadga muvofiqdir. CHunki, tuproqni yuza qismidagi kesaklarni mayin xolatga keltirish natijasida suvni kapilyarlar orqali bug'lanishi kamayadi.Qator orasida 90 sm bo'lgani uchun kultivatorda 5 ta g'ozpanja, 34 ta KKO, begona o't bosgan maydonlarda 8 ta pichoq 24-26 ta KKO, jami 37-39 mm organi o'rnatib qator oralari ishlandi.

Ta'kidlash joizki, keyingi kultivatsiyalarda g'o'zaning ildizini shikastlantirmaslik maqsadida yumshatish kengligi va chuqurligi 90 sm qator oralarida kultivator ishchi organlari o'simlikdan 8-10 sm uzoqlikda 6-8 sm chuqurlikda keyingi juftliklari mos ravishda 8-10,10-12 sm chuqurlikda o'rtadagilari 15-16 sm chuqurlikda o'rnatib ishlov berish kengligi 70-74 sm qilib o'rnatiladi.

G'o'zani oziqlantirish.G'o'zani oziqlantirishda fosforli o'g'itlarni 70 % ni shudgor ostiga va qolgan qismini gullashda bberildi. Kaliy o'g'itidan shudgor ostiga 60 % va shonalashda 40 % solindi. Azotli ekishbilan birga 10 % 3-4 chinbarg chiqarganda 20-25 % shonalashda 35-40 % va gullash davrida 30 % oziqlantirildi. Chigit ekish bilan bir vaqtda gektariga 45-60 kg amiakli selitra, oddiy oddiy superfosfot 162-200 kg/cha ammofos 43-50 kg/cha ekish chizig'idan 5-7 sm chetga, 12-15 sm chuqurlikka solindi. Qolgan qismi o'suv davrida berildi. (SHonalash va gullash davrida)ma'dan o'g'itlardan g'o'zani o'sish va rivojlanish davrida azot sof xolda 25 kg/ga fosforli o'g'itdan 175 kg/ga va Kaliyli o'g'itdan 125 kg/ga berildi.

Bundan tashqari barg orqali oziqlantirish yoki nihollar uchun juda katta ahamiyatga ega. Ayniqsa azotli va fosforli o'g'itlarga juda juda talabchan bo'ladi. Bu davrda nihollar oziqlantirilmasa keyingi rivojlanishi davrining cho'zilib ketishi va hosilga salbiy ta'sir etishi tajribalarda o'z isbotini topgan Karbomid asosida tayyorlangan suspenziyalarni ho'za 2-3 chinbarg davrida 1,5-2,0 %, shonalashda 2,5 -3,6 % gullash davrida esa 4-5 % li suspenziya aralashmasi ishlatildi. Buning uchun 100 l suvga 3,5- 4,0 kg karbomid (2-3 chin bargda) solinib aralashtiriladi, va 300 metrga etkazib 1 gektor maydonga sepiladi. SHonalashda 7,0-8,0 kg karbomidga 4,0-4,5 kg kaliy o'g'itidan gullash davrida esa 10,0-11,0 kg karbomidga 7,0-7,5 kg fosforli o'g'itidan tayyorlangan suspenziyalar ishlatiladi.

G'o'zani sug'orish. G'o'zani rivojlanishida maqbul sug'orish me'yorini va tartibini joriy qilinishi yuqori hosil olishning muhim sharti hisoblanadi. G'o'zalar gullashi boshlangunga qadar 700-800 m³ suv bilan 10-14 soat davomida gullash davrida 900-1100 m³ suv bilan 18-24 soat sug'orildi.

"Buxoro-6" g'o'za navi boshqa navlarga nisbatan suvsizlikka chidamli bo'lib, suvni kamroq talab qiladi. Biz kuzatuv olib borgan fermer xo'jaligida asosan kechasi suvni sharbat oqizib sug'oradi. Bunday sug'orish suvdagi go'ng g'o'zaga oziq berish bilan mulcha vazifasini bajaradi, suvni bug'lanishini kamaytiradi, uni tuproqqa singishini yaxshilaydi. Bunday usulda o'simlik to'yib suv ichadi, eng asosiysi hosil elementlari to'kilmaydi.

G'o'za zararkunanda va xashoratlarga qarshi kurash.

Trips va shira o'simlikning dastlabki o'sish davri uchun juda havfli hisoblanadi. Ularga qarshi o'simlikni chidamliligini oshirish uchun azot, fosfor va kaliyli o'g'itlar aralashmasini yoki ulardan alohida bir turining 1,5-2,5 % eritmasini OVX-28 rusumli traktor purkagichlari yordamida gektariga 200-300 litr suvli suspenziya sarflab ishlatildi.

G'o'za tunlami (ko'sak qurti)nazorat qilish uchun feramon tutqichlari dalaga osib qo'yiladi, va har kuni ertalab olib kechqurun dalaga osib qo'yiladi. Ertalab nazorat qilinganda kapalaklar tutqichga tushgan bo'lsa 3 marta 5 kun oralatib har gektarga 1 gr don trixogramma qo'yib yuboriladi. Brakon dalada qurt paydo bo'lishiga va uning

zichligiga qarab 1:5, 1:10, 1:20, nisbatda amalga oshiriladi. Har gektarga 300 tadan - 200 tagacha urg'ochi zoti hisobida. Trixogramma va brakon ertalab barvaqt (soat 5-10⁰⁰ gacha) kechqurun (17-dan 21-gacha) tarqatiladi. Feramon tutqichda bir kechada o'rta 20 tadan ortiq kapalak tushsa kimyoviy kurash olib boriladi.

Kimyoviy preparatlardan karate (0,5 l/ga), Nurel-D (1,5 l/ga), tolstar (0,6 l/ga), daltofos (1,5 l/ga) kabi preparatlardan biri ishlatiladi. 200-300 metr ishchi eritmasi hisobida sepiladi.

Chilpish. Chilpish o'z vaqtida bajarish, shona, gul tugunchalarini saqlash ga, ko'sak paydo bo'lishi va etilishi jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi. G'o'zani Chilpish o'z vaqtida, sifatli o'tkazilganda ko'saklarning pishishi 5-10 kunga tezlashadi va xosildorlikni gektariga 3-4 tsentnerga oshiradi.

Bu muhim tadbir g'o'zaning asosiy va yon shoxlariningo'suv nuqtasini qirqib bo'lib o'simlikning vegetativ o'sishni to'xtatish va ozuqa modalarin hosil nishonlariga yo'naltirish maqsadida o'tkaziladi. Chilpish ko'zatuv olib borilgan fermer xo'jaligida 12-13 ta hosil shoxi paydo bo'lganda qo'lda Chilpish o'taziladi. Chilpish 3- marta qilindi. Chilpish o'z vaqtida o'tkazilganda g'o'zani tepa qismida qo'shimcha 3-4 ta ko'sak paydo bo'ldi. Bu esa hosildorlik 15-20 % ortdi. Tola sifati yashilanadi. Iqtisodiy samaradorligi ortdi.

G'o'za terimga tayyorlashda asosiy agrotexniktadbirlardan biri defoliatsiya (barg saqlantirish) dir. O'simlikni terim oldidan kimyoviy usulda bargsizlantirish ko'saklarni ochilishini tezlashtiradi, yuqori sifatli tola miqdorini oshiradi., ko'saklarning chirishini bartaraf qilib hosilning o'z vaqtidaterib olishini ta'min etadi.

G'o'zalarda barg tushirish ko'saklar 60-70 % ochilganda boshlanib, magniy xlorat defolintidan o'simlik rivojiga qarab gektariga qarab gektariga 8-12 kg sarflandi. Paxta xosilini yig'ib terib olish. Paxta xosilini nes-nobud qilmay o'z vaqtida yig'ib-terib olish o'rta muhim agrotexnik tadbir hisoblanadi. Paxta hosilini terib olish uchun eng avvalo dalani tanlab keyin tayyorlandi. G'o'za dalalarini paxta hosilini terib olishga tanlashda avvalo ekish muddatiga e'tibor qaratildi. G'o'zada 50-60 % ko'saklar ochilgan maydonlar aniqlanib eng avvalo sifatli defoliatsiya o'tkazildi. Defoliatsiyadan 10-12 kun o'tkandan keyin dalaga paxta terishga tayyorlandi. Har bir

dalaga texnika kirish uchun yo'llar tayyorlandi. Sug'orish ariqlari ko'mildi, dala atrofi va ichida olingan o'q-oriqlar tekislandi.

Paxtani quritish maydonchalari tayyorlandi. Dala atrofidagi aylanma maydondagi paxtalar o'rib olindi, tirkamalar yurish uchun qulaylik yaratildi. Paxta terishga tushishdan oldin fermer dalaning 5 ta nuqtasidan konvert usulida 10 tadan o'simlik na'munasi olib, ushbu o'simliklardagi jami ko'saklar soni va shundan ochilgani sanab chiqildi. Na'munadagi 10 ta o'simlikdagi 150 ko'sakdan 120 tasi ochilgan bo'lsa bu 80-85 % ni tashkil etadi. Bunday dala terimga tayyor hisoblanadi.

Biz kuzatuv olib borganfermer xo'jaligi 3-kunda birinchi terimni tugatib 12-kundan keyin ikkinchi terimni boshlab 2-kunda tugatdi. Uchunchi terimni 15 kundan keyin terimga tushdi va 2 kunda terib paxta terimini yakunladi. Rejadagi paxtani 100 % birinchi sortga sotildi.

IV. Asosiy qism.

“Buxoro-6” g'o'za navini etishtirish, saqlash va dastlabki qayta ishlash texnologiyasida qo'yidagi agrotexnologik jarayonlarbajarish kerak bo'ladi.

- A) Kuzgi shudgor
- B) Erni tekislash
- V) Tuproq sho'rini yuvish
- G) Pushtaga ekish uchun pushta olish va zaxira suvi berish
- D) Chigitni ekishga tayyorlash (chigitga kul aralashtirish)
- E) Chigit ekish bilan birga gerbitsid qo'llash.
- J) YAgonalash.
- Z) G'o'zani parvarish qilish.
- L) G'o'zani oziqlantirish.
- M) G'o'zanni sug'orish
- I) G'o'zani Chilpish
- T) G'o'za zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurash.

O) G'o'zani bargini to'kish, paxtani terib olish, paxtani saqlash va dastlabki qayta ishlash.

Kuzgi shudgor.Dehqonchilikda eng asosiy ish hosildan bo'shagan maydonlarni shudgor qilishdir. O'z vaqtida sifatli qilib shudgor qildik. Kuzgi shudgorni ahamiyati juda katta bo'lib vegetatsiya davri davomida zichlanib qotib ketgan haydalma qatlam tuprog'ini alo darajada yumshatadi. Ikkinchidan yavvoyi o't yoki ularni qoldiqlari, urug'lari, xashorat tuxumlari (g'umbaklari) kasallik tarqatuvchi infeksiyalarini plug etagiga tushirib va plug oldermasi ko'targan tuproq bilan qo'shiladi.

Tajriba o'tkaziladigan dalani 35 – 40 sm chuqurlikda haydaladi. Xaydov oldidan go'ng "RTO – 4" markali sochqichlar bilan 15 tonnadan chirigan gung solinadi. Madaniy o'g'itlardan fosforli va kaliyli o'hitlarni 70 - 75 % "KSA – 3" markali o'g'it sepuvchi agregatdan foydalanib shudgor qilinadigan erga solinadi va ikki yarusli "PYA – 3 - 35" markali tirkama omoch bilan er shudgor qilindi. Omoch o'tgan yo'llar orasida uzilishlar, yopiq va ochiq haydalmay qolgan erlar qolmadi. Maydonning barcha qismi burchaklari etaplari ham sifatli haydaladi.

Erni ekishdan oldin sifatli qilib tekislandi. Erni tekislashda P – 2- 8A markali keng qamrovli tekislagich bilan tekislandi. Chigit ekish uchun 90 sm kenglikda pushta olindi. Pushtaga zaxira suvi olindi.

4.1. "Buxoro-6" g'o'za navini etishtirishda agrotexnik tadbirlar.

"Buxoro-6" g'o'za navini agrotexnologik etishtirishda qo'yidagi jarayonlar kerak bo'ladi.

A) Kuzgi shudgor.

B) Erni tekislash.

V) Tuproq sho'rini yuvish.

G) Pushtaga ekish uchun pushta olish va zahira suv berish.

D) Chigitni ekishga tayyorlash. (chigitga kul aralashtirish).

E) Chigit ekish bilan birga gerbitsid qo'llash.

J) YAgonalash.

Z) G'o'zani parvarish qilish.

L) G'o'zani oziqlantirish.

M) G'o'zani sug'orish.

I) G'o'zani Chilpish.

T) G'o'za zararkunanda va kasalliklarga qarshi kurash

O) G'o'zani bargini to'kish, Paxtani terib olish.

Paxtani saqlash va dastlabki qayta ishlash.

Kuzgi shudgor. Dehqonchilikda eng asosiy ish hosildan bo'shagan maydonlarni shudgor qilishdir. O'z vaqtida sifatli qilib shudgor qilindi. Kuzgi shudgorni ahamiyati juda katta bo'lib vegetatsiya davri davomida zichlanib, qotib ketgan haydalma qatlam tuprog'ini a'lo darajada yumshatadi. Ikkinchidan yovvoyi o't yoki ularning qoldiqlari, urug'lari, hashorat tuxumchalari (g'umbaklari) kasallik tarqatuvchi infeksiyalarni plug etagida tushirib va pulug ag'darmasi ko'targan tuproq bilan qo'shiladi. Tajriba o'tkaziladigan dalani 35-40 sm chuqurlikda haydaldi. Haydov oldidan go'ng "RTO-4" markali sochqichlar bilan 15tonnadan chirigan o'ng solinadi. Ma'danli o'g'itlarda fosforli va kaliyli o'g'itlarni 70-75 % " KSO_{1-3} " markali o'g'it sepuvchi agregatdanfoydalanib shudgor qilinadigan erga solindi va ikki yarusli TYA-3-35 markali tirkama omoch bilan er shudgor qilindi. Omoch o'tgan yo'llar orasida uzulishlar, yopiq va ochiq haydalmay qolgan erlar qolmadi, maydonning barcha qismi, burchaklari, etaklari ham sifatli haydaldi.

Erni ekishdan oldin sifatli qilib tekislandi. Erni tekislashda P-2,8 A markali keng qamrovli tekislagich bilan tekislandi. Chigit ekish uchun 90 sm kenglikda pushta olindi. Pushtaga zahira suvi olindi. Chigitni ekishdan oldin ekishga tayyorlandi.unuvchanligi 90-95 % dan kam bo'lmagan urug'lik Chigit tanlanib, Chigit maxsus tayyorlangan, betonlangan maydonchalarda 1 tonna Chigitni namlash uchun 600 litr suv sarflandi. Chigit namlanadigan maydonchalarni bo'yi-5 metrni 2,5 metr va balandligi 30-35 sm namlash vaqtida suv oqib ketishining oldi olinadi. Chigitni namlash vaqtida qalinligini 20-25 sm qilib yoziladi.

Namlash 3 bosqichda birinchisi 4-soat, ikkinchi 4-soat, uchunchisi 6- soat davomida 200 metrdan suv sarflandi. Chigitni to'liq namlashga erishildi. Chigitni ekish oldidan pushtani usti 2 marta barona qilindi.

Biz o'z tajribamizda Chigitni ekishdan oldin kul bilan ishlov berdik. Chigitni pushtaga tushishiga yordam beradi. Seyalkani teshigiga tiqilib qolmaydi. Ekish chuqurligi 5 sm, ekish me'yori 50 kg qilib, ekildi. Chigit ekish bilan birga "stomp" gerbitsididan gektariga 1,0 kg me'yorda ishlatildi.

G'o'zani yagonalash. G'o'za 1-2 chinbarg paydo bo'lganda o'tkazildi. Yagonalash 8 kunda yakunlandi. Yagonadan keyin sakkizinchi kuni ya'ni bir marta tekshirilib ko'tarilib chiqqan, nimjon kasallangan nihollar olib tashlanib to'liq va tekis gektar hosil qilindi. Paxtani yagona qilishda o'lchov tayoqchalaridan "Buxoro-6" navi g'o'zasi kuchli shoxlanib o'sganligi uchun bir gektar maydonda 90-95 ming tup ko'chat qoldirildi. YA'ni bir pag'ona metrda 8-9 tup ko'chat to'g'ri keladi.

4-2. "Buxoro - 6" g'o'za navini saqlash va dastlabki qayta ishlash texnologiyasi.

Paxta hosili davlat paxta tozalash zavodining tayyorlash punktlarida davlat standarti talablariga muvofiq qabul qilinadi. Paxta tayyorlash punktlarida klassifikator paxtaning sifatini aniqlab qabul qilgan paxta partiyasi ombariorga joylashtiriladi. Paxta qabul qilish punktlari paxtani qabul qilib uni tozalash, quritish va yaxshilash saqlashga masul bo'ladi.

Chigitli paxtani saqlash. Chigitli paxtani tolaning tabiiy xususiyatlari va chigitning urug'lik hamda sanoat sifatleri buzilmaydigan sharoitda saqlash lozim. Ma'lumki, paxta asosan sentyabr, oktyabr va noyabroylarida yig'ib-terib olinib topshiriladi. Paxta tozalash zavodlari shu uch oy mobaynida bir mavsumda tayyorlangan paxtaning 20-25 % ni qayta ishlaydi.

SHu sababli Chigitli paxtaning ko'p qismi tayyorlash punktlaridan uzoq vaqt saqlanadi. Paxta qabul qilish punktlarida paxtani to'g'ri va uzoq vaqt saqlashni tashkil qilish va undan olinadigan tola hamda boshqa xoashyolarning sifatini yaxshilash sharoitlarida biri uni omborlarga joylashtirishda namligini davlat standart ko'rsatgichlari talabi darajasida bo'lishdir. Paxtani joylashtirish va saqlashda uning sanoat sorti, terish usuli va namligi hisobga olinadi.

Namligi 20 % dan yuqori bo'lgan paxta quritish tozalash sexiga yaqin joyga vaqtincha to'kiladi, va quritilib tezda zavodga jo'natiladi. Chigitli paxtani yopiq omborlarda saqlash vaqtida namligi 11 % gacha bo'lgan 1 va 2 sort paxta uchun uning o'rtacha zichligi $150-190 \text{ kg/m}^3$ va namligi 14 % gacha bo'lgan 3 va 4 sort paxta uchun $130-160 \text{ kg/m}^3$ bo'lishi shart.

Chigitli paxtani ochiq maydonchalarda saqlash uchun paxta tayyorlash punkti xududida er yuzasidan 40 sm ko'tarilgan maxsus buntlash maydonchalari quriladi.

Paxta saqlaydigan maydonchalar 50 mm qalinligida asfalt qilinadi, yoki 150 mm qalinlikda yirik tosh terib orasi mayda shog'al bilan to'ldiriladi. Buntlash maydonchalarining o'lchami 25-14 metr bo'ladi. Buntlash paxta joylashtirib bo'lgandan so'ng uning uchi 2,0-2,5 m balandlikda konussimon qilib qo'yiladi. Paxtani uzoq vaqt saqlashda buntlarni brezent bilan to'g'ri yopish muhim ahamiyatga ega. Ochiq maydonlardagi buntlarni yopishda o'lchamli 8,5-7 metr bo'ladigan brezentdan foydalaniladi.

Bunt qilinganidan 10-20 kundan so'ng uning o'rtasidan uzunasiga balandligi 1,8-2,0 metr va eni 0,8-1,0 metrli tunnel kovlanadi.

Nam havoni so'rish namligi yuqori bo'lgan paxtani saqlashning muhim tadbiri hisoblanadi. Bunda mahsus statsionar uskuna qurutiladi. Havoni tortish uchun UVTS -10 m, VTS- 8 m, VTS-10 va UVP ventilyatorlari ishlatiladi. Havoni tortishi 8-soatdan oshmasligi kerak. Nam paxtani buntlarga joylashtirish va o'z vaqtida havoni tortmaslik oqibatida paxta o'z-o'zidan qiziy boshlaydi, natijada tolaning rangi o'zgaradi. Sorti pasayadi, urug'ning sifati keskin passayib ketadi. SHuning uchun saqlanayotgan I va II sort paxtani har 10 kunda III- IV sort paxtani har 5 kunda tekshirib turish kerak.

Paxtani sanoat sortiga, terish usuliga va namligiga qarab joylashtirish va saqlash. (R. Oripov, I.Suloymonov) 1991 yil

Sanoat sorti	Terish usuli	Paxtani komplektlash va saqlashda namlik gradatsiyasi %
I	Qo'lda	9-gacha

	Mashinada	II-gacha, II-dan yuqori.
II	Qo'lda Mashinada	10-gacha II-gacha, II-dan yuqori.
III	Qo'lda Mashinada	II-gacha 11-18,18 dan yuqor.
IV	Qo'lda Mashinada va to'kilgan paxta	13-gacha 13-20, 20 dan yuqori.

Chigitli paxtani dastlabki ishlash. Chigitli paxtadan tayyor maxsulot olish uchun bajariladigan hamma ishlar yig'indisi paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayoni deb ataladi. Bu jarayon natijasida paxtadan tola, linturug' kabi mahsulotlar olinadi. Chigitli paxtani dastlabki ishlash paxta zavodlarida amalga oshiriladi va paxtani quritish, tozalash chigitdan tola ajratish (tinlash) Chigitni qisqa tolalardan tozalash (lintrlash), tola, lint va urug'ni tolali chiqindilardan tozalash, urug'lik va texnik chigitlarni ishlash kabi jarayonlar amalga oshiriladi.

Paxta sanoati markaziy ilmiy tekshirish inistituti Chigitli paxtaning namligi sort va terim usuliga qarab 3 guruxga bo'lib, dastlabki ishlashni tavsiya etadi.

Birinchi guruxga namligi 14 % dan oshiq, mashinada terilgan II-va-IV sort hamda qo'lda terilgan III-IV sort paxtalar, ikkinchi guruxga namligi 14 % dan kam bo'lgan mashina qo'lda terilgan paxtalar, uchunchi guruhga qo'lda terilgan I-II sort paxta quritiladi.

Quritish 2 xil bo'ladi:

1. Tabiiy
2. Sun`iy

Tabiiy quritishda quyosh yordamida dalada quritiladi. Sun`iy quritishda tola 105° S, urug'lik paxta 55° S texnik Chigitli paxta 70° S gacha qizdiriladi. SXN-10, quritgichlar ishlatiladi. Paxtani tozalashda ikki batariyali tozalash tsexi (CHX-3m-2), VA-12m, S, S -15 m, bitta elivator EX-15, ishlatiladi. Tinlash mashinalarini arrali va valikli bo'ladi. Tinlash mashinalari – XDD va XDD -2m, hamda

avtomatlashtirilgan arrali tinlash mashinalari ZXDD, ZXDD va DP-130 markali mashinalardan foydalaniladi. Chigitni tozalashda exa-chep yoki CHSM markali privmatik Chigit tozalagichlardan foydalaniladi. Tinlashdan so'ng olinadigan chigitlarda qisqa tolalar lint (momiq) va delint (tuk) qoladi. Odatda ingichka tolali paxtaning chigitidan 2,4-5 % o'rta tolali paxtaning chigitida 11-17 % lint va delent qoladi. Lint va delent massasining chigitning boshlang'ich massasiga bo'lgan foizda ifodalangan nisbatiga chigitning umumiy tukligi deb yuritiladi. Chigitdan lint ajratish jarayoni linterlash va bu jarayoni bajaradigan mashinalar linter deb ataladi.

Linterlash jarayoni ximiyaviy, mexanik va agroximiyoviy usullarida amalga oshiriladi. Paxta tozalash zavodlarida mexanikusulda ishlaydigan PO-160, POM-160, PMP-160, 5 LP markali arrali linter mashinalari bilan jihozlangan chigitlardan qoldiq tola va tuklarni ajratishi jarayoni delintlash va olingan mahsulot esa delint deb yuritiladi. MPM-1, 3 SOM, 4 SOM, LKXT-210 markali delintlash mashinalari ishlatiladi. (R.Oripov va boshqalar, 1991 yil).

4-3. “Buxoro-6” g'o'za navini etishtirish saqlash va dastlabki qayta ishlash texnologiyasini natijalari va taxlili.

Mirishkor tumani Jeynov qishlog'i "Hamroev Zafar" fermer xo'jaligini 115 gektar eri bo'lib shundan 50 gektariga "Buxoro - 6" g'o'za navini ekadi. Bu g'o'za navini suvsizlikka, sho'rga chidamligi ko'sakdagi paxta vazni 7,2 g, tola chiqimi 36,5 % tola uzunligi 34- mm, tolaning uzulishi kuchi 4,5-4,6 gk nisbiy uzunlik kuchi 28,3 gk tekis 35-40 tsentnergacha cho'l sharoitiga paxta berilishini bo'lib 6 yildan beri shu navni ekib xar yili rejani 120-130 % bajarib kelmoqda va katta daromad olmoqda. Biz o'zimizni bitiruv malakaviy ishimizni shu fermer xo'jaligida olib bordik. Fermer xo'jaligi kuzgi g'alladan bo'shagan erni 30-35 sm chuqurlikda shudgor qildi. Erta bahorda obi-tobida erni tekislab juyak oldi va mart oyida zahira suvi oldi. Erni ekishga tayyorladi. Gektariga 50 kg dan Chigit olib kelib 24 soat davomida ivitdi. Bizni tavsiyamiz bilan 1 gektar maydonga ekiladigan Chigitni kulga aralashtirilib keyingi seyalkaga solindi. Kulga aralashtirilgan Chigitni donodorligi oshadi.

Seyalkadan bexato tushadi. To'liq ko'chat olinadi. Boshqa chigitlarga qaraganda 1-2 kun oldin ko'karadi. Chigit ekish bilan birga gerbidtsid sepiladi. Ko'karib chiqqan ko'chatlar 1-2 chinbarg chiqargandla yagona qilindi. Gektarida 80-85 ming dona ko'chat qoldirildi.

Birinchi ishlov berishda 14-16 sm chuqurlikda, ikkinchi marta 18-20 sm chuqurlikda keyingilari 14-16 sm chuqurlikda kultivatsiya qilindi. Xar suvdan keyin 2-3 marta ishlov berildi. G'o'za 14-16 shoxlagan vaqtida Chilpish o'tkazildi. Paxta 60-70 % ochilganda defoliatsiya o'tkazildi.

Birinchi terim o'tkazilgandan keyin paxta maydoni engilgina sug'orib olindi.

Yuqoridagi agrotexnik qoidalar to'liq bajarilgani uchun "Hamroev Zafar" fermer xo'jaligi davlat shartnomat rejasi 26 tsentner o'rniga har gektardan 33,5 tsentnerdan hosil olib har gektaridan qo'shimcha 7,5 tsentner jami davlatga 167,5 tonna paxta sotdi va qo'shimcha 20000000 sumdan ortiq foyda oldi. Olingan foydadan mahallaga o'zini ishchilariga, va boshqaishlarga sarflandi. Ya'ni shuni aytishni lozim topdikki, topshirilgan paxtani hammasini quritib, iflosliklardan tozalab 1 chi sortlarga 100 % topshirdi.

Biz shunday xulosaga keldikki bu erda fermer xo'jaligini raisi ishbilarmonligi, tadbirkorligi, o'z ishini bilib qilishi agrotexnologiya qoidalariga to'liq rioya qilish natijasida shunday yutuqlarga erishdi.

4-4. "Buxoro-6" g'o'za navini etishtirish saqlash va dastlabki qayta ishlash texnologiyasini iqtisodiy samaradorligi.

Mirishkor tumani "Xamraev Zafar" xo'jaligi 115 gektar eri bo'lib shundan 50 gektar maydoniga "Buxoro - 6" navini ekadi. Bu nav cho'l sharoitiga moslashganligi uchun 6 yildan buyon ekib kelmoqda. Har yili davlat shartnoma rejasini ortig'i bilan bajaradi. 2012 yilda 50 tgektar maydonga paxtani "Buxoro - 6" navini ekib yuqori hosil oldi. Fermer xo'jaligini davlatga paxta sotish rejasi 26 tsentner bo'lib agrotexnika qoidalariga to'la amal qilgan xolda hosildorlikni 33,5 tsentnerga etkazib qariyb 7,5 tsentner ortiqcha paxta etkazib davlatga sotadi. Qo'shimcha etishtirilgan

37,5 tonna paxta hisobiga 20 milliondan ortiq sof foyda ko'rdi. Jami 167,5 tonna davlatga paxta sotdi. Jami sotilgan paxta xosilini hisoblaydigan bo'lsak 100 milliondan ortiq daromad oldi.

Bular nimani hisobiga keldi paxtani pishirib o'z vaqtida defolyatsiyani o'tkazib, paxtani zavodga quritib, iflosliklardan tozalab topshirish hisobiga keldi. Bundan tashqari ishchi, traktorchi, suvchilarni o'z vaqtida ish haqlarini berishi rag'batlantirilishi, terimchilarga kunlik ish haqini berishi natijasida bu yutuqqa erishildi va fermerni iqtisodiy samaradorligi oshdi va 40-50 million sof foyda olindi.

**“Buxoro-6” g'o'za navini etishtirish saqlash va dastlabki qayta ishlash
texnologiyasini iqtisodiy samaradorligi.**

Ekin turi	Paxta maydo ni ga	Hosi ldor lik	Jami reja dagi hosil tonna	Qo'shi m cha hosil tonna	Jami hosil tonna	1 kg paxtani puli so'm	Jami summa ml so'm	Sof daromad mln
Buxoro 6"	50	26	130	37.5	167.5	600	100500000	35000000

V – ATROF MUHIT MUHOFAZASI.

Paxtani saqlash va dastlabki qayta ishlash jarayonida juda katta miqdorda chang chiqadi. Ushbu changlar zavod binalarini, atroflarini va atrofdagi havosini bug'latadi. Zavodda ishlaydigan ishchilar uchun noqulay sharoit tug'diradi. Hamda atrof muhitni ifloslantiradi. Bundan tashqari ishlab chiqarish sexlari havosi bulg'anib xar hil allirgek, boshqa kasalliklarni kelib chiqishiga zamin yaratadi. Bunday holatlarni oldini olish uchun texnologik mashinalarda mahalliy surgichlar o'rnatiladi. Natijada havo tarkibidagi iflosliklar va zarali changlar siklonlarga ajratilib tozalanadi.

Ba'zan shunga qaramasdan, sex ichidagi turli mashina korpuslarining ochiq bo'lishi, to'liq yopilmasligi, agrodinamik rejimining yaxshi ishlamasligi,

pnevmo trubalarning teshilishi va notug`ri montaj qilinishi tufayli turli chang, gaz va boshqa iflosliklar sexlardagi atmosferani ifloslantiradi.

Zavodda qabul qilingan yoki keltirilgan paxtani turli texnologik jarayonlar yordamida tozalash vaqtida ajralib chiqadigan changlar asosan organik va mineral aralashmalardan iborat.

Organik aralashmalar qurigan has-cho`plar maydalangan bo`laklari yoki butun qismlardan iborat bo`ladi.

Mineral aralashmalarga changlar, qumlar va boshqa turli aralashmalar hamda transportda yuklash vaqtida qo`yilgan iflosliklar kiradi.

Paxtani dastlabki aralashmalaridan tozalash vaqtida asosan mineral aralashmali changlar ya`ni iflosliklardan ajratib olinadi. Mahalliy chang surgichlarga xar hil simmetrik quvurlar bilan ulangan ventilatsiyalar havoni markazdan qochirma chang tutgichlarga uzatadi.

Oziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda ham ashyoni texnologik qayta ishlash jarayonlarida (yuvish va boshqa jarayonlarda) toza ichimlikka yaroqli suv ishlatiladi.

Natijada juda ko`p miqdorda chiqindi suvi hosil bo`ladi, u korxona kanalizatsiyasi orqali tashqariga chiqarib yuboriladi.

Chiqindi suvlarning tarkibiy qismdagi moddalar organik va noorganik bo`ldi, ularni to`g`ridan to`g`ri suv havzalariga tashlab bo`lmaydi. Korxonada hosil bo`layotgan chiqindi suvlarni tozalash inshootlariga yo`boriladi. Bu yerda ular tozalanib, yana texnik maqsadlarga ishlatish uchun yaroqli holga keltiriladi. Chiqindi suvlarni tozalab ishlatish korxonaga foyda keltiradi.

Chiqindi suvlar kanalizatsion nasos stansiyasi orqali tozalash inshootlariga yuboriladi. Bunda umumiy sanitariya – geyiyena talablariga rioya etish kerak. Kanalizatsiya quvurlariga tiqilib qoladigan paxta, qog`oz, latta, po`choq va boshqa narsalar chiqindi suvlariga tushmasligi kerak. Kanalizatsiya quvurlarini doimo nazorat qilib turiladi, har 30-50-100 litrda nazorat quduqlari qurish kuzda tutiladi.

Korxonadan chiqayotgan chiqindi suvlar korxonadan chiqish joyida mexanik tozalanadi, unda suvning chiqish joyiga kataklari 16x30mm li sim panjara o`rnatiladi.

Bunda suvga tushib qolgan yirik mehanik qo`shinchalar tushib qoladi, ular vaqti-vaqti bilan tozalanib turiladi va axlat kontenerlariga tashlanadi. Kanalizatsiya quvurlari qiya qilib o`rnatiladi, ularda suvning oqish tezligi 70sm/ sek bo`lishi kerak, quvurlar 1,5-1,7 m chuqurlikda yotqiziladi. Kanalizatsiya quvurlarining diametri 550 mm dan kam bo`lmasligi kerak. Mehanik usul bilan dastlabki tozalangan chiqindi suvlari biologik tozalash inshootlariga yuboriladi.

VI. MEHNAT MUHOFAZASI.

Paxtani qayta ishlash zavodlari ishchilar uchun havfsizlik texnikasi bo`yicha rioya qilinadigan qoidalar. Ma`lumki xar qanday sanoat korxonalariga yangi ishga kiruvchilar qaysi sex yoki bo`limida ishlarlaridan qat`iy nazar, albatta dastlabki kirish instruktaj va ish joyi bo`yicha texnik havfsizlik qoidalaridan zarur instruktaj olishlari shart. So`ng ishchilar instruktaj olganligi haqida korxonada texnink hafsizlik bo`yicha tutilgan maxsus jurnallarga qo`l qo`yishlari kerak. Bunda tashqari doimiy ishlovchi ishchilar ham har yili yoki ish uchastkalar o`zgarganda avvalgi bo`limidan qat`iy nazar tegishli texnik havfsizlik qoidalar bo`yicha instruktaj o`tkaziladi.

Umumiy qoidalar.

Texnika havfsizligiga rioya qilish uchun paxtani qayta ishlash korxonalari ishchilari quyidaagilarni bilishi kerak. Har bir ishchi faqat topshirilgan ishni bajarishi va uni boshqa shaxsga topshirmaslikni, havfsir ish usullarini o`zlashtirishni, asbob va moslamalardan faqat ular mo`ljallangan maqsadlar uchun foydalanishni, ko`ngilsiz voqealarga sababchi bo`luvchi nuqsonlarni tezda bartaraf etish zarurligini; balandlikda ishlashda faqat ishga yaroqli narvonlar saqsovchi moslamalardan foydalanishni, buzuvq texnologik mashina va agregatlar yoki ularda to`suvchi qurilmalar bo`lmaganda ishlatmaslikni

Ishlab chiqarishda shikastlanganda darhol medpunkga murojat qilish va yuz bergan ko`ngilsiz hodisa haqida smena masteri yoki zavod ma`muriyatiga xabar berishni, ishlab chiqarishda shikastlangan kishilarga zarur meditsina yordami

ko`rsatilishini; hizmat ko`rsatuvchi uchastkadagi mashina ----(76) va qurilmalarning vazifasi hamda tuzilishini, mashina uskuna ish rejimlarini uni profilaktik qarovdan o`tkazish hamda remont qilish grafiklarini bilishni; mehnat va ishlab chiqarish intizomiga qat`iy rioya qilishni unutmaslik kerak.

Ish boshlashda oldingi havfsizlik qoidalari.

Har bir ishchi o`z kiyimining tartibga keltirishi, ayniqsa xotin-qizlar sochini bosh kiyim ostida yig`ishtirib olishlari kerak; ishchilarning ish joyi yetarli darajada yoritilga va va ortiqcha narsalardan holi bo`lishi lozim; texnologik mashinaning buzuq emasligi ko`zdan kechiriladi va ishonch hosil qilingandan so`ng ishga tushiriladi; ish vaqtida anialangan kamchiliklarni o`z navbatida bartarof qilish, agar bu ishni o`zi eplolmasa, shu haqda smena masteri (brigader) ni habordor etishi shart; texnologik mashina yoki agregatni ishga tushirishda oldin ximoya ko`zoynaklari respiratorlar va boshqa himoya vositalari ta`qib olinadi, meditsina ko`rigidan o`tgandan keyin havfsizlik texnikasi bo`yicha instruktajlardan o`tishi, havfsizlik ish usullarini o`rganishi, texnologik mashina va oqragatga xizmat ko`rsatish (idora qilish) huquqiga ega bo`lish uchun zaruriy sinov (imtihon, suhbat)dan o`tishi kerak, texnologik mashina va (agregat)larni sozlash hamda boshqarish bo`yicha barcha operatsiyalarni diqqat bilan ko`zatib borish va puxta bajarish, texnologik ish rejimlarini saqlab turish, yong`inga qarshi havfsizlik qoidalaririoya qilish lozim; texnologik mashina boshqarayotgan ishchi hayolini buzmasligi va agregatini ish vaqtida qarovsiz qoldirmasligi zarur; sexdagi gabsizlantiruvchi suruvchi qurilmalarni ishga yaroqliligini tekshirish, vazifalari o`z vaqtida bajarilganda ish davomida sodir bo`ladigan ko`ngilsiz hollarning oldi olingan bo`ladi.

Smenani qabul qilishdagi xabarsuzlik choralari Agregat(Texnologik mashina) larni umumiy holati tekshirilib, ularning ishga yaro`liligiga ishonch hoasil qilinishi; so`ruvchi puflovchi ventiliyatsiyalar hamda havo trubalarning sozligi, elektrodvigatel va rotorlar sihlaganda korpus devoriga tegmasligi tekshirilishi; turli agregatlarda taluqli kontrol o`lchoy asboblarini, havsizlik aftomatikasi va o`to`chirish vositalarining butun komplekslarining mavjudligiga hamda ishga yaroqliligiga ishonch hosil qilinishi kerak.

Havfsiz ish usullari va ishlash vaqtidagi havfsizlik choralari.

Mashina ishlayotganda to'siqlar ochilmasligi va olinmasligi; har bir ishchi joyi toza tutilishi va ortiqcha narsalardan holi bo'lishi; texnologik mashinani ishga tushirishdan oldin atrofdagi kishilartovush signali bilan ogahlatirilishlari; remont qilingan texnologik mashina smena masterining ruxsati bilan ishga tushurilishi; elektr toki bo'lmay qolganda darhol tegishli mashinani to'xtatish va tok paydo bo'lganida smena masterining ruxsati bilan ishga tushirilishi kerak. Shuningdek: texnologik mashinalarning aylanayotgan ish organlarini qo'l yoki biror narsa bilan to'xtatish; mashina-agregat ishlayotganida uning tagini tozalash, yuritilish tayemalarni kiydirish, zarar va oraliqlarni sozlash qat'iyan man etiladi, tiqilib qolishlarini bartaraf qilish; buzilishlarni tuzatish, mashina uskunalarini sozlash va tozalash bilan bog'liq barcha ishlar ishchi organlarni to'liq tuxtatganda keyin ulanmasin! Odamlar ishlayapti! Degan ogahlantirish plakati ostida amalga oshiriladi. Balanligi 2 metrda yo'qori joylashgan agregatlarga doimiy xizmat ko'rsatishda atrofi panjara bilan o'ralgan, turish uchun maydonchasi bo'lgan maxsus narvonlardan foidalanish;og'ir detallarni montaj qilishda ko'tarish tashish mehanizmlarini ishlatish lozim, bunda yuk ostida va yukni qo'l bilan yo'l qoqyilgan normalardan; ayollar 15 kg, erkaklar 50 kg, o'smirlar 10 kg dan ortiq yuk ko'tarish; elektr havfsizligi qoidalarini o'rganmay turib, elektr asboblardan foydalanishiga ruxsat berilmaydi; elektr asbobni ko'zdan kechirishda va remont qilishda uni tarmoqdan uzib qo'yish zarurligini unumaslik kerak.

Ishdan keyingi havfsizlik choralari.

Smenani topshirishda ish davomida aniqlangan kamchiliklar haqida qabul qiluvchini ogohlantirish zarur; mashina uskunalar to'xtatiladi va tozalanadi, ish joyi tartibga keltiriladi, moslama va asboblarni tegishli joyga qo'yiladi.

Ma'lumki sanoat korxonalarida texnologik mashinalarning soni va ularning ish organlari(tovush manbalari) dagi chastotalarining o'sib borishi, mehanik shovqinlarning oshishiga sabab bo'lmoqda.

Paxtani qayta ishlash sanoatida ba'zi texnologik jarayonlar va operatsiyalar intevsiv holda ishlab chiqarish shovqinini chiqaradi. Ishlab chiqarish sovgini faqat

qaloqqagina emas, balki organizmga ayniqsa, yurak-tomir va nerv sestimasiga umumiy salbiy ta'sir ko'rsatmoda.

Bu ta'sir bosh aylanishi, quloqning shang'illashi, bosh og'rig'i, arterial qon bosimining o'zgarishi, yurak urishi ritmlarining buzilishi va boshqalarda namoyon bo'ladi. Ishlab chiqarish shovqini fikrni bir joyga yig'ishga halaqit berib, ish qobiliyatining pasayishiga va baxtsiz hodisalar shikastlanishlarning ko'payishiga sabab bo'lishiga olib kelishi mumkin. Shovqinning organizmga ta'siri uning chastotaviy markaziga bo'g'liqdir. Agar shovqin va vibratsiya miqdori sanitariya va gegiyena normativlariga nisbatan yo'qori bo'lsa, ular kishi organizmi uchun juda havflidir. Har qanday sodir bo'ladigan shovqin va vibratsiyalar turli sezgi organlari tufayli ta'sir ko'rsatadi va uni oraliq qismiga erishish mumkin.

Shovqin darajasi yuqori joylarda ikki-uch yil, o'rtacha bo'lgan joylarda besh o'n yil ishlaganda quloq asta-sekin og'irlashib qoladi. Shuning uchun asosiy sexdagi mashinalarni boshqaradigan kishilarga normal sharoit yaratish uchun tegishli mashinalardagi shovqin va vibratsiya kattaliklarini ham sanitariya va gegeyenik normalariga mos holda bo'lishini nazorat qilish zarur. Agar normativdagi (CH-1104-73) chegaradan katta bo'lsa, u holda, ularni tegishli mashinalarda vibroakuetik masalalari hisobga oligan holda ishlab chiqarish kerak. Lekin shovqin va tebranish yoqori bo'lgan texnologik mashinalarning hamma ishchi organlariga vibroakuetik parometrlarini tushurish juda qiyin muammo. Shu boisdan tegishli mashinada shovqin va tebranish manbai bo'lgan ish organlarini aniqlab, so'ngra bu zararli omillarni hisobga olib darhol kamaytirish uchun chora-tadbir ko'rilishi lozim.

VII-Xulosa va takliflar.

“Buxoro-6” g’o’za navini etishtirish saqlash va dastlabki qayta ishlash texnologiyasini xulosa va takliflar va tavsiyalar.

“Buxoro-6” g’o’za navini etishtirishda shunday xulosaga keldikki parvarishlashda fan yutiqlari, ilg’or dehqonlar, fermer xo’jaliklarini tajribasidan foydalanishi har-bir mintaqa uchun mos almashlab ekish tizimini joriy qilish, fermer tadbirkor, ishbilarmon, agrotexnika tadbirlarini o’z vaqtida kechiktirmasdan o’tkazilgan er o’zinniki deb his qilish erga munosabati o’zgarganligi natijasida yuqoridagi yutiqlarga erishganini guvohi bo’ldik.

Paxta etishtirish uchun cho’l zonasida “Buxoro-6” g’o’za navi to’la talabga javob beradi. Qachonki agrotexnik tadbirlaro’z vaqtida bajarilsa.

Mirishkor tumanidagi “Hamroev Zafar” fermer xo’jaligi raisi ishbilarmonligi, tadbirkorligi, xar-bir agrotexnik tadbirlarni o’z vaqtida kechiktirmasdan bajarganligi sababli paxtadan mo’l hosil etishtirdi.

“Buxoro-6” g’o’za navi Chigitni ekishdan oldin 24 soat namlangandan keyin kul bilan aralashtirib donodor qilib siyalkaga solinsa Chigit bexato tuproqqa tushib, to’liq ko’chat olinadi, va 1-2 kun oldin ko’karib chiqishi kuzatildi. Chigitni ekishda gerbitsid bilan ekish ikkinchidan yagona qilishni 1-2 chinbarg chiqarganda o’tkazilsa 2-3 tsentner hosilga hosil qo’shiladi. Uchinchidan kultivatsiyani

Birinchisini 14-16 sm.

Ikkinchisini 18-20 sm

Keyingilarini 14-16 sm chuqurlikda o’tkazilsa hosilga xosil qo’shiladi.

Paxtani birinchi terimdan keyin sug’orilsa ham hosilga hosil qo’shiladi.

YUqorida keltirilgan tajribamiznatijalarini Viloyatfermerlariga tavsiya etamiz.

VIII- Foydalanilgan adbiyotlar ro'yxati ilovalar.

1.1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari.

1.1.1. "Fermer xo'jaligi to'g'risida" gi qonun, 2004 yil

1.1.2. O'zbekiston Respublikasining "Lizing to'g'risida" gi qonuni 1990 yil aprel.

1.2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari.

1.1.3. "Kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-1702 sonli farmoni 1997 yil 31 yanvar.

1.1.4. "O'zbekistonda fermerlik faolyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora - tadbirlari to'g'risida" 2012 yil 22 oktyabr PF- 4478 sonli farmoni.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasini qarorlari.

1.2.1. Qishloq xo'jaligida agrokimyoviy hizmati ko'rsatishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 63 sonli qarori 2001 yil 1 fevral

1.3. Boshqa me'yoriy xujatlar.

1.3.1. 1998-2000 yillardagi davrda qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish dasturi. Qishloq xo'jaligida islohatlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy xujjatlar to'plami T. SHarq. 1998 yil.

1.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asoslari va ma'ruzalari.

1.4.1. I.A.Karimov "O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish yo'lida"T. O'zbekiston. 1995-yil 246-b.

1.4.2. I.A.Karimov "Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti-to'kin hayot manba". Birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining X sessiyasida so'zlagan nutq T.O'zbekiston 1998-70 bet.

1.4.3. I.A.Karimov "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" T.O'zbekiston 2009 yil 56 bet

1.6.1. Batamov A. Va boshqalar "Buxoro-6" va "Buxoro-8" g'o'za navlarini etishtirish agrotexnikasi bo'yicha tavsiyalar.Buxoro 2004 yil 1-68 betlar

- 1.6.2.** Batamov A. “Buxoro-6” navini agrotexnikasi bo’yicha tavsiyalar. Qarshi-2001-32 bet.
- 1.6.3.** Batamov A. va boshqalar. O’rta tolali Buxoro-8 g’o’za navi. “Paxtachilik va rivojlantirish muommolari”. T. 2004 yil 277-278 betlar.
- 1.6.4.** Nazarov R. “Qishloq xo’jalik” fani-yangi asrda T. 2001 yil 8-bet.
- 1.6.5.** Nazarob va boshqalar Qashqadaryo viloyati sharoitida paxtadan mo’l-hosil etishtirish omillari. Qarshi 2001 yil 32-bet
- 1.6.6.** Nazarov R. Va boshqalar Paxtadan mo’l hosil etishtirish omillari. T. 2003 yil 16-bet
- 1.6.7.** Nazarov R. va boshqalar. Paxtachilikda ma’dan va mahaliy o’g’itlarni qo’llash bo’yicha tavsiyalar. T. 2003 yil 24-bet
- 1.6.8.** Nazarov R. Muxammadiev. G’o’zadan mo’l hosil etishtirish omillari. T. Fan. va tex. 2007 yil
- 1.6.9.** Nazarov R. Hosildorlik navga bog’liq. O’zbekiston qishloq xo’jaligi №1 2005 yil 2-bet
- 1.6.10.** I. Raxmatov, SH. Nurmatov.
- 1.6.11.** Axmedov J va boshqalar, G’o’zani parvarishlash agrotexnologiyalari bo’yicha tavsiyalar. T. O’ZPITI-2010 yil
- 1.6.12.** R. Oripov I. Sulaymonov, E. Umirzoqov Qishloq xo’jalik mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi. T. Mexnat. 1991 yil
- 1.6.13.** G. J. Jabborov, R. U. Otametov, A. Hamidov Chigitni paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi. T. “O’qituvchi” 1987 yil
- 1.6.14.** R. Oripov, N. Xalimov “O’simlikshunoslik” T. 2006 yil
- 1.7.14.** O’. Yo’ldoshev, U. Usmonov, O. Qudratov mehnatni muxofaza qilish T. Mehnat 2001 yil 184-bet
- 1.7.15.** Hasanov B. O. va boshqalar. G’o’zni zararkunanda kasalliklar va begona o’tlardan himoya qilish T. 2002 yil
- 1.7.16.** O’zbekiston Respublikasida ishlatish uchun ruxsat etilga o’simliklarni himoya qilish vositalari ro’yxati T. 2003 yil.
- 1.7.17.** Boboxo’jaev I., Uzoqov P. va boshqalar “Tuproqshunoslik” t. 1995 yil

3.1. Qashqadaryo viloyati qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi yillik hisoboti
2012 yil.

3.2. O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi rasmiy sayti
W.W.W. agrobysiness ru..

ҚАРШИ МУҲАНДИСЛИК-ИҚТИСОДИЁТ ИНСТИТУТИ

Битирув малакавий иш бўйича рахбарнинг тақризи

Талаба: Аббасов Фарходдин

Мавзу: "Бунора 6" гӯз навбани етими-
тирии соқам ба дастаоти
кайто ғимаме ренналогийи

Малакавий иш ҳажми: 89

Ўзма изоҳ қисми: 80

Чизмалар сони: 10

Мавзунинг долзарблиги: Моложавий иш
мавзун тўғра долзарб бўлиб
берилган молдавнинг тўра мор

Битирув умумтехник ва махсус тайёргарлиги тавсифи: Сталаба улуси
технологик ва маърифат
инженерлик билим махсус
тайёргарликка тло.

Битирувчи талабанинг мустақил ишни бажариш лаёқати, махсус адабиётлардан фойдаланиш қobiliяти ва шахсий хусусиятлари

Малака мустақил иш бажариш лаёқати
ишнинг адабиётлардан фойдаланиш қobiliяти юқори.
Ақил, ғорбл қалтар.
Малакавий ишнинг ижобий томонлари
Малака Бунор 6^а
Навбат урганиш иш пидор учун
керакли маълумотлар
табиатлар берган

Малакавий иш баҳоси: (максимал балл – 100 балл) 80 ball

Малакавий иш рахбари: Султ Н. Ҷиоматкулов
(ф.и.ш.)

Илмий маслахатчи: _____ (Ф.и.ш.)

« 17 » июль, 2013 йил.

ҚАРШИ МУҲАНДИСЛИК-ИҚТИСОДИЁТ ИНСТИТУТИ

МУҲАНДИС-ТЕХНИКА факультети

5620500 – “Қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини етиштириш, сақлаш ва уларни дастлабки қайта ишлаш технологияси” бакалавр таълим йўналиши битирувчиси Алисанов Рахриддин нинг

битирув малакавий ишига

ТАҚРИЗ

Малакавий иш мавзуси: “Бухоро 6” кўза навини етиштириш, сақлаш ва дастлабки қайта ишлаш технологияси”.

Малакавий ишнинг ҳажми: 90 бет

а) ёзма изох қисми: варақлар сони 80

б) график қисми: чизмалар сони 10

Малакавий иш мавзусининг долзарблиги ва берилган топшириқга мослиги

Малакавий иш мавзуси жуда долзарб бўлиб берилган топшириққа жуда мос.

Малакавий ишнинг ёзма изох ва график материалларининг таркиби ва бажарилиш сифати

Малакавий ишнинг ёзма изох ва график материалларининг таркиби ва бажарилиш сифати жуда талабга жавоб беради

Малакавий ишда илмий манбалар, фан-техника ютуқлари ва илғор тажриба натижаларидан фойдаланилганлиги

Малакавий ишда илмий манбалар фан-техника ютуқлари интернетдан илғор даражада ва даражада ютуқ ва тажрибаларини натижаларидан фойдаланилган

Мехнат ва атроф – мухитни муҳофазаси қисмининг ёритилганлиги Битирув
малакавий ишда меҳнат ва
атроф мухитни муҳофазаси
қилиш тўла ёритилган

Малакавий ишнинг техник – иқтисодий жihatдан асосланганлиги: Битирув
малакавий ишнинг техник ва
иқтисодий самарадорлиги тўла
асослаб ёритилган

Малакавий ишнинг ижобий томонлари ва амалий аҳамияти Малакавий
ишда "Бухоро-6" қўзғалғичи
механик турбини ётиштириш
ва сакланч урғишган ва му
туман уйи тўла қатъи аҳо-
лиятга ва бўлган тавсия
лар берилган

Малакавий битирув ишнинг баҳоси (максимал балл – 100 балл) ва битирувчига унвон
мос йўналиш бўйича «бакалавр даражаси» берилиши мумкинлиги тўғрисида хулоса
Талаба етарли даражада
тўла қатъи меҳнат қилиш
"Бухоро-6" қўзғалғичи ётиштириш сар-
лиш ва дастлабки қайта
қилишни урганган. Малака-
вий иш тўла талабага тавоф
бериш ва 88 балл билан баҳо-
лаш тавсия этилган. "Бакалавр"
даражаси берилишига лойиқ
деб ҳисоблайман



Ҳаммадафё вилояти
Агроқий лабораторияси
Бўлим мудири Хужалов.Ш.
мансаби, иш жойи, шмий даражаси, ф. и. ш.

« 14 » 06 2013 йил

